



## KUNDALIK HAYOTDA ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR VIKTIMLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

**Seydullaeva Darbike Janabergen qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Magistratura bo'limi 70420113-Jinoyat  
qonunchiligini qo'llash teoriyasi va nazariyasi  
2-bosqich magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19918343>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil  
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

### KEY WORDS

*viktimlik, zo'ravonlik, jinoyat, profilaktika, ijtimoiy xavf, jabrlanuvchi, kriminologiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada kundalik hayotda zo'rlik ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlar va ularning viktimologik jihatlari keng tahlil qilinadi. Viktimlik tushunchasi, uning shakllanish omillari, shaxsning jinoyat qurboniga aylanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy faktorlar yoritiladi. Shuningdek, zo'ravonlik jinoyatlarining turlari, ularning jamiyatdagi ko'lami va oqibatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada profilaktik chora-tadbirlar, qonunchilikni takomillashtirish va aholining huquqiy ongini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*

Zamonaviy jamiyatda zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kundalik hayotda sodir etiladigan jinoyatlarning muhim qismi aynan zo'rlik ishlatish bilan bog'liq bo'lib, bu nafaqat jinoyatchining xatti-harakatlari, balki jabrlanuvchining xulq-atvori va ijtimoiy holati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, jinoyatlarni faqat jinoyatchi nuqtayi nazaridan emas, balki jabrlanuvchi — ya'ni viktim nuqtayi nazaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Viktimologiya — jinoyat qurbonlarini o'rganuvchi fan sohasi bo'lib, u shaxsning jabrlanuvchiga aylanish jarayonini, sabablarini va oldini olish choralari tahlil qiladi. Ushbu maqolada aynan kundalik hayotda sodir etiladigan zo'ravonlik jinoyatlarida viktimlik masalasi chuqur o'rganiladi.

Viktimlik — bu shaxsning muayyan omillar ta'sirida jinoyat qurboniga aylanish ehtimolini bildiruvchi holatdir.<sup>1</sup> Har qanday inson nazariy jihatdan jabrlanuvchiga aylanishi mumkin, ammo ayrim shaxslar ijtimoiy, psixologik yoki iqtisodiy omillar tufayli yuqori darajada xavf ostida bo'ladi.

Viktimlik quyidagi turlarga ajratiladi:

Individual viktimlik — shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq;

Guruhiy viktimlik — muayyan ijtimoiy guruhga mansublik bilan bog'liq;

Vaziyatli viktimlik — muayyan sharoit va vaziyatlarda yuzaga keladi.

<sup>1</sup> Z. Ismoilov. Viktimologiya. — T.: Yangi asr avlodi, 2019.

Kundalik hayotda zo'rlik ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi:

Maishiy zo'ravonlik — oilada sodir etiladigan zo'ravonlik;

Ko'cha jinoyatlari — talonchilik, bosqinchilik;

Jinsiy zo'ravonlik — nomusga tegish jinoyatlari;

Psixologik zo'ravonlik — tahdid, haqorat va bosim.

Ushbu jinoyatlar faqat qasddan sodir etilib ,mazkur jinoyatlarning katta qismini shaxsning hayoti yoki sog'ligiga qaratilgan jinoyatlar tashkil etadi, unga quyidagilarni kiritamiz :a) unda obyekt faqat insonning hayoti bo'lib, bu jinoyatlar qatoriga qasddan odam o'ldirish , onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish kabi jinoyatlar kiradi,b) inson sog'ligi va hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, bularga sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, o'rtacha , yengil shikast yetkazish, do'pposlash, qiynash, o'ldirish bilan qo'rqitish, xavf ostida qoldirish kabi jinoyatlar kiradi, v) insonning ozodligi va sha'ni , qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar, odam o'g'irlash, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish g) zo'rlik ishlatib ,qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib nomusga tegish kabi jinoyatlar kiradi.

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda vujudga kelishini tahlil qilib chiqar ekanmiz , aybdor shaxsning criminallashuv jarayonida jabrlanuvchining shaxsi muhim o'rin egallab ushbu jinoyatlat mexanizmi uch asosiy bo'g'in – motivatsiya , rejalashtirish va bajarishni o'z ichiga oladi. Bunda jabrlanuvchi muqarrar vaziyatning elementi sifatida aybdorning ruhiy holati va xulq-atvori , mazkur mexanizmga amal qilishi, shuningdek , jinoiy xulq-atvor motivatsiyasidan boshlab ishtirok etadi.

Zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar xulq-atvorining tahlili natijasida uning quyidagi xususiyatlariga ega ekanligini ko'ramiz:

-jabrlanuvchiga odamovilik , kamgaplik xos bo'lib, oila azolari va yaqinlari bilan muloqot qilishni istamasligi;

-o'ziga past baho berish , sha'ni , qadr-qimmatini kamsitilganligi yuzasidan chuqur iztirobga berilishi;

-qo'rquv va xavotirdaligi sababli noilojsizlik hissiyotlarini namoyon etish;

-o'zining tashqi ko'rinishi , tabiiy ehtiyojlariga beparvo bo'lib, tez-tez o'z joniga qasd qilish to'g'risida fikrlashi yoki o'z joniga suiqasd qilishga harakat qilishi;

-ovqat yemasligi yoki haddan ziyod iste'mol qilishi , spirtli ichimliklar iste'mol qilishni xohlashi;

-muloqot paytida ko'zlarini olib qochishi , ko'z yoshi to'kishi, odamlarga ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lishi;

-o'z farzandlariga nisbatan loqayd yoki tajovuzkor munosabatda bo'lishi aniqlandi.

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyat jabrlanuvchilarini quyidagilarga: 1) yuqori darajadagi xavf –xatar xususiyatiga ega jabrlanuvchi- bunda jinoyatlar motivi turlicha , yani g'araz , bezorilik ,qasd olish kabilarda bo'ladi; 2) yuqori darajadagi xavf –xatar xususiyatiga ega bo'lmagan jabrlanuvchi; 3) arzimagan xususiyatdagi xavf-xatardan jabrlangan shaxs;4)eventual(tasodifiy) jabrlanuvchilarga ajratamiz.

Viktimlashuvning eng yuqori darajasi 18 yoshdan 25 yoshgacha , yani 36% ga to'g'ri keladi. Jabrlanuvchilarning uchdan ikki qismi ijtimoiy faol bo'lganlar , yani ishlaganlar 18,5 %ni,

xizmatchilar 10,9 %ni , xususiy tadbirkorlar 17%, talabalar 12,8% , kollej o'quvchilari 10%, hech qayerda ishlamaydigan va o'qimaydiganlar 30.8 %ni tashkil qilgan. Ba'zi hollarda jabrlanuvchining o'zi ham bilvosita jinoyat sodir bo'lishiga zamin yaratishi mumkin. Bu "viktin xulq" deb ataladi. Masalan:

-kechasi xavfli joylarda yolg'iz yurish;

-begonalarga haddan tashqari ishonch;

-nizoli vaziyatlarni keskinlashtirish. Biroq bu holat jabrlanuvchini ayblash uchun emas, balki profilaktika choralari ishlab chiqish uchun muhimdir.

Hozirgi zamon kriminologiyasida viktinologiyaning sabablari va shart-sharoitlari tushunchalarining qo'llanilishi , ularning farqlari yuzasidan munozara tobora keskin tus olib bormoqda. Bugungi kunda olimlar viktin xulq atvorning asl sabablarini aniq va to'liq bilishlari mumkin emas degan xulosaga kelmoqdalar. Zotan , kishilarning xulq-atvorini tushuntiruvchi mukammal nazariya haligacha ishlab chiqilmagan. Ammo viktinlikka sabab bo'luvchi bazi omillarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Viktinlikning shakllanishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir qiladi:

a) Ijtimoiy omillar:kambag'allik; ishsizlik; ta'lim darajasining pastligi.

b) Psixologik omillar: o'zini himoya qila olmaslik; past o'zini baholash; qo'rquv va bo'ysunuvchanlik.

c) Demografik omillar: yosh (bolalar va keksalar ko'proq xavf ostida); jins (ayollar ko'proq jinsiy va maishiy zo'ravonlik qurboni bo'ladi).

d) Xulq-atvor omillari: ehtiyotsizlik; xavfli muhitlarda bo'lish; spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalar iste'moli.

Ayrim xorijiy davlatlar kriminolog va viktinologlari zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktinologiyasi va uning profilaktikasini o'rganish zarurligini isbotlash uchun quyidagi fikrni keltiradilar: birinchidan, umumiy jinoyatchilik soni kamayishi barobarida shaxsga qarshi jinoyatlar, jumladan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar kamayishi tendensiyasiga ega emas, chunki tegishli jinoyatlar viktinligini pasaytirish uchun tizimli choralari ko'rilmaydi, ikkinchidan , jinoyatlar ichida shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanganlar ko'pchilikni tashkil etadi; uchinchidan , ushbu jinoyatlar natijasida shaxslar nafaqat jismoniy balki mulkiy zarar ham ko'radilar; to'rtinchidan criminal viktinlikni kamaytirish borasida chora ko'rgan davlatlarda jinoyatlar soni keskin ravishda pasaygan (Finlyandiya, Italiya, Buyuk Britaniya).<sup>2</sup>

Xullas, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktinologik profilaktikasi yuzasidan bir qancha choralarni ko'rish lozim. Jumladan ,birinchidan nosog'lom oilalarni aniqlash va ularni ro'yxatga olish , ular ustidan doimiy nazorat o'rnatish; ikkinchidan ,homiylilik va vasiylilik organlarining to'liqsiz oila nazorat qilishini belgilab qo'yish; uchinchidan oila munosabatlariga tasir qiladigan kriminogen manbalarni aniqlash va bartaraf qilish; to'rtinchidan oila hayotini rag'batlantirish , oila a'zolarini ishga joylashtirishda yordam berish ; bolalar qarovsizligini oldini olish; oilani ishdan tashqari bo'sh vaqtini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Kundalik hayotda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo bo'lib, uni hal etishda faqat jinoyatchini

<sup>2</sup> Croll H. Victims of White –Collar and Corporate Crime//Victims, Crime and Society /Edited by Pamela Davies , Peter Francis and Chirs Greer.-London:Citi Universitu, 2017.-P.79.

jazolash yetarli emas. Ushbu jarayonda jabrlanuvchining roli, uning xatti-harakati va ijtimoiy holatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Viktimologik yondashuv jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda profilaktik chora-tadbirlarni kengaytirish orqali zo'ravonlik jinoyatlarining oldini olish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kriminologiya asoslari. – T.: Adolat, 2020.
2. Z. Ismoilov. Viktimologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya . Maxsus qism . Darslik Toshkent 2021.
4. A. Abdullayev. Jinoyat huquqi va profilaktika. – T.: Fan, 2021.
5. Braithwaite J. Crime, Shame and Reintegration. Cambridge, Cambridge University Press, 1989. 232 p.
46. Rustambayev M. H. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Toshkent, Adolat, 2019. 560 b.
7. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlari, 2022.



INNOVATIVE  
ACADEMY